

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

HISSIIY HOLAT FE'LLARINING O'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATLARIDAGI TALQINI

Muxamedjanov Farxod Mansurovich

Qo'qon davlat pedagogika insituti

Xorijiy tillar nazariyasi kafedra mudiri

Elektron pochta manzili: farxodmansurovich75@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida hissiy holatni ifodalovchi fe'llarning izohli lug'atlardagi talqiniga lingvistik yondashuv asosida tahlil berilgan. Maqolada hissiy holat fe'llarining semantik xususiyatlari, ularning lug'aviy mazmuni, emotsional komponenti va kontekstda ifodalanish darajasi o'rganiladi. Shuningdek, izohli lug'atlarda berilgan ta'riflar asosida ushbu fe'llarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib beriladi. Maqola davomida hissiy holatni ifodalovchi ba'zi asosiy fe'llarning talqini, sinonimik qatori, qo'llanish sohalari va ifoda usullari misollar orqali yoritiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilshunosligida leksik-semantik izlanishlar olib borish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: hissiy holat, fe'l, izohli lug'at, semantika, emotsional komponent, o'zbek tili, leksik ma'no, tilshunoslik, kontekstual tahlil

Аннотация: В данной статье представлен лингвистический анализ толкования глаголов, выражающих эмоциональные состояния, в толковых словарях узбекского языка. Рассматриваются семантические особенности этих глаголов, их лексическое значение, эмоциональный компонент и степень выраженности в контексте. На основе определений, представленных в словарях, раскрывается теоретическое и практическое значение таких глаголов. В статье также приведены примеры с наиболее употребительными глаголами, обозначающими эмоциональные состояния, их синонимические ряды, сферы употребления и способы выражения. Результаты исследования могут служить важным источником для дальнейших лексико-семантических исследований в узбекском языкознании.

Ключевые слова: эмоциональное состояние, глагол, толковый словарь, семантика, эмоциональный компонент, узбекский язык, лексическое значение, лингвистика, контекстуальный анализ

Abstract: This article presents a linguistic analysis of the interpretation of verbs denoting emotional states in explanatory dictionaries of the Uzbek language. The study examines the semantic features of these verbs, their lexical meanings, emotional components, and degree of contextual expression. Based on the definitions provided in the dictionaries, the theoretical and

practical significance of such verbs is revealed. The article also provides examples of commonly used emotional state verbs, their synonymic series, fields of usage, and modes of expression. The research results can serve as a valuable source for further lexical-semantic studies in Uzbek linguistics.

Keywords: emotional state, verb, explanatory dictionary, semantics, emotional component, Uzbek language, lexical meaning, linguistics, contextual analysis

KIRISH: Universal izohli lug‘atlarning maqsadi leksik sathning semantik va funksional ko‘rsatkichlarini qayd etishdan iborat. Leksemaning ma‘no ko‘lamini to‘laonli qamrab olish, ya‘ni lug‘aviy ma‘no bilan birga kontekstual semalarni ham asoslash uchun lug‘at maqolalar misollar bilan boyitiladi. Izohli lug‘at strukturasiga ana shunday yondashish o‘tgan asr boshlaridan ommalashdi. Xususan, zamonaviy o‘zbek tilining ilk izohli lug‘ati ham shu tamoyilga asoslanib tuzilgan.³⁴³

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi eng yirik va keng ko‘lamli izohli lug‘at ham o‘sha eski manbaning takomillashtirilgan variant deyish mumkin.³⁴⁴ Unda an‘anaga muvofiq maqolalar leksemaning turkumi va boshqa morfologik kategoriyalarini ilova qilish bilan boshlanadi. So‘ng so‘zning alohida lug‘aviy ma‘nolari izohlanadi va ma‘nolar misollar bilan dalillanadi. Misollar badiiy asar matnlari, maqol yoki gazeta-jurnaldan olingan parchalar bo‘lishi mumkin. Alohida hollarda so‘zning etimologiyasi haqida to‘xtalib, qaysi tildan o‘zlashganligi haqida ma‘lumot keltiriladi. Aytish joizki, zamonaviy izohli lug‘atlar polifunksional, o‘z tarkibida boshqa bir necha lug‘atlardagi ma‘lumotlarni mujassam etgan chin ma‘noda ontologik manba tusini olmoqda. Masalan, ingliz tili lug‘atlari onlayn platformaga ko‘chganligi bois izohli lug‘at qisman tezaurus, qisman etimologik va so‘z yasalishi lug‘atiga aylanib ulgurgan. Oxford learners dictionary, Cambridge, Longman, Macmillan belgilari ostida ishlovchi izohli lug‘atlar shunday ko‘p funksiali manbalardir. Anglashiladiki, davr bilan hamnafas bo‘lish uchun, lug‘atning amaliy ahamiyatini oshirish va foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida o‘zbek tilining izohli lug‘atini ham shunday manbaga aylantirish lozim. Buning uchun mavjud lug‘atni turli turkumlar, ma‘no guruhlar doirasida tahlil qilib yutuq va kamchiliklarini yuzaga chiqarish talab etiladi.

Jumladan, lug‘atda hissiy holatni ifodalovchi fe‘llar talqini an‘anaviy struktura asosida amalga oshirilgan.

³⁴³Qarang: Omonturdiyev A., Xoliyorov O‘., Qorjovova G. Zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi: Tahlil va tadqiq. Termiz, 2016;

³⁴⁴Madvaliev A. tahr. O‘zbek tilining izohli lug‘ati – Toshkent: Akademnashr, 2013.

ЭНТИКМОҚ 1 айн. **хўрсинмоқ**. Давлатёр қаттиқ энтикиб олди: -Йўқ, гаплашиш жуда қийин. П. Турсун, Ўқитувчи. Кумуш кўзини юмди-да, энтикиб қўйди, А. Қодирий, Ўтган кунлар.

2 Ҳаво етишмаётгандек қийналиб, тез-тез нафас олмоқ, нафаси оғзига тикилмоқ. Наримон узоқ жойдан чопиб келган одамдай энтикар, бўғиқ овоз билан гапирар, кўзлари олазарақ бўлиб, атрофга қарарди. П. Қодиров, Уч илди. Орқадан бировнинг бўғиқ нафаси, энтикиб ҳансирагани эшитилди. А. Мухтор, Қорақалпоқ қиссаси.

3 Жуда иштиёқида бўлмоқ; орзиқмоқ. Тезроқ уйга етиб бориб, Жамил Каримович сўзларини эрига бирма-бир айтиб беришга энтикарди. Мирмуҳсин, Нуқра. Биз баъзида хом-хатала шеър ёзиб.. газетада босиб чиқаришга энтикамиз. Газетадан. Лекин у барқ уриб, мангу очиладиган фурсат қачон келишини энтикиб кутарди. Шухрат, Жаннат қидирганлар.

СЕВМОҚ 1 Ишқ-муҳаббат туйғуси билан муносабатда бўлмоқ; кўнгил қўймоқ, яхши кўрмоқ. Жонгинам, мен сенга кўрсатай вафо, Гуллаган баҳорим, сени севаман. У. Исмоилов, Сайланма. Шу топдагина у [Алимардон] Муқаддамни севганини, қаттиқ севганини тушунди. Ў. Ҳошимов, Қалбингга кулоқ сол.

2 Меҳр-муҳаббат, садоқат кўрсатмоқ; ғамхўрлик қилмоқ. Ватанни севамоқ. Онани севамоқ. ■ Она ўз ўғлини севади фақат.. Ҳ. Олимжон. Отам бўлмасангиз ҳам, мени отам муҳаббати билан севган содиқ ва меҳрибон бир кишимсиз, яъни маънавий отам. А. Қодирий, Ўтган кунлар.

3 Ёқтирмақ, яхши кўрмоқ. Муסיқани севамоқ. Гулни севган тиканни ҳам севади. ■ Нури кийинишни, безакни севар эди. Ойбек, Танланган асарлар.

Жини севмаслик Ёқтирмаслик, таъбига, дидига тўғри келмаслик; ёмон кўрмоқ. Мингбоши, Содиқ аминни жини севмагани учунми, у бу ерда йўқ. М. Исмоилий, Фарғона т. о.

Ikki fe'lni hissiyot semasi bilan birga etimologik jihatdan sof turkiy tilga mansubligi birlashtirib turadi. Birinchi fe'l *entikmoq* izohi aynan sinonim bilan boshlangan. So'ng shu sinonim ma'nosiga uyg'un misollar keltirilgan. Misollardan birinchisida entikish tashvish sababli yuzaga keluvchi holatligi anglashilsa, ikkinchisida bu holat aynan qanday hissiyot natijasi ekanligini anglash mushkul. Ikkinchi ma'no deb sanalgan fiziologik holatni birinchisidan farqlash mushkul. Bir qarashda *xo'rsinish* ham nafas olish jarayoniga bog'liq holat, shuning uchun uni alohida ma'no sifatida ajratishga hojat yo'q. Xo'rsinish va nafas tiqilishini bir punktda alohida semalar sifatida keltirish mumkin. Uchinchi ma'no esa darhaqiqat alohida lug'aviy sema sifatida ko'rsatilishga munosib hissiy holatdir. So'z ma'nosi *ishtiyoqda bo'lmoq, orziqmoq* so'zlari bilan sinonimik shaklda izohlangan. Uning ijobiy konnotatsiyasini misollar orqali ochib berishga urinish bor. So'ngi izohda *entikib kutmoq* birikmasi izoh bilan birga ushbu so'zlar nutqda bir-birini to'ldiruvchi variantdosh ekanligidan ham bilvosita dalolat beradi.

Boshqa bir hissiy holat fe'li *sevmok* izohida uchta alohida ma'no ajratilgan. Ushbi ma'nolarning barchasi bir-birini to'ldiruvchi yaxlit katta ma'noning turli semalaridir. Birinchi va ikkinchi ma'nolar bir-birining aynan takrori, ulardagi sadoqat va mehr so'zlari hissiyot xususiyatlari, belgilarini ochib beruvchidir. Uchinchi ma'no kishilar orasidagi tuyg'uni emas kishining narsa-buyum, yoki shunga o'xshash jonsiz narsaga nisbatan hissiyotni anglatadi. Maqola so'ngida so'zning ziddi hisoblangan birikma keltirilgan. Birikma tarkibidagi fe'l asos leksemaning inkor shaklidir.

Shu ikki maqola misolida lug'atdagi talqin bir standart asosida amalga oshirilmaganiga guvoh bo'lamiz. Birinchi holatda ajratilgan uch ma'nodan ikkitasi bir fiziologik holatning turli ko'rinishi bo'lsa, so'ngi ma'no hissiy holatga oid. Ikkinchi maqolada ajratilgan har bir ma'no

ayni hissiy holatni ifodalaydi va semalar ushbu hissiyot kimga yoki nimaga ko‘ra ekanligi bilan farqlanadi. Bunday farq esa ma‘noni alohida, mustaqil lug‘aviy sema sifatida ajratishga asos bo‘la olmaydi. Har ikki so‘z izohida ham sinonimik yondashuvni ko‘ramiz. Ya‘ni asosiy leksema ma‘nosi o‘ziga yondosh, qisman yoki aynan variantdosh so‘zlar vositasida izohlanadi.³⁴⁵

Albatta, izohga bunday yondashuvni xato deb bo‘lmaydi. Biroq ma‘nodoshlar so‘z izohining asosiy qismini egallashi oqibatida lug‘at foydalanuvchilari uchun noqulaylik tug‘iladi. Ya‘ni o‘quvchi so‘z ma‘nosini anglash uchun boshqa bir leksema izohiga murojaat qilishi kerak bo‘ladi.

Ma‘lumki so‘zning leksik ma‘nosi izohiga sinonimlarni sanashdan tashqari yana turli yondashuvlar mavjud. Shulardan biri grammatik va semantik trakibni sanab o‘tish usulidir.³⁴⁶ Bunda so‘zning grammatik va struktur xususiyatlarini alohida sanab, ajratib chiqish nazarda tutiladi. Lug‘at maqolada so‘z o‘zagi, uning suffiks va affikslari ajratilib, shakllarning nutqiy voqelanishini dalillovchi misollar izoh mazmunini markazini tashkil etadi. Yirik ma‘no ko‘lamiga ega leksema izohida shu leksema mazmunini maydonini tashkil qiluvchi semalar mavjud, izohda shular sanab o‘tilishi ham mumkin. *Sevmoq* so‘zida qisman sinonimik, qisman tarkibiy qismlar izohini kuzatamiz. Izohda *mehr-muhabbat*, *ishq* kabi sinonimlar bilan birga ushbu hissiy holatning belgi-alomatlari ham sanab o‘tilgan. *G‘amxo‘rlik qilmoq*, *sadoqat* leksemalari *sevmoq* so‘zi bilan assotsiativ ma‘no munosabatiga egaligi bois so‘z ma‘nosini ma‘lum darajada ochib beradi.

ЎКСИМОҚ Бирор нарсага эриша олмаганлиги, бебахралиги, камситилганлиги ва ш. к. учун афсусланмоқ, хафа бўлмоқ, ғам чекмоқ. *Иккинчи она ва унинг болалари Очилга ёмон кўз билан қарашмаса ҳам, ҳар ҳолда, у бегонасира, сал нарсани кўнглига олиб ўксир эди.* П. Қодиров, Уч илдиш. Бу гапларни эшитиб, Полвоннинг яримта кўнгли яна баттар ўксиди. Ж. Шарипов, Хоразм.

ЎКСИНМОҚ айн. **ўксимоқ**. Элмурод, унинг [Гулсумнинг] бу қадар ўпкаси тўлиб, ўксиниб йиғлашининг сабабини суриштиришдан илгари, уни юпатиш лозим, деб ўйлади. П. Турсун, Ўқитувчи. [Хулкар:] Ойим раҳматли мени қиз туққанларидан ўксинар эди. П. Қодиров, Қора кўзлар.

НАФРАТЛАНМОҚ Бирон-бир шахсдан, унинг қилган ишларидан ғазаб аралаш жирканмоқ, нафрат қилмоқ. *Шербек йигитнинг юзсизлигидан нафратланди.* С. Анорбоев, Оқсой. *У ерда, одамлар орасида Ҳаётнинг отаси Мадаминхўжа ҳам бу бедодликдан нафратланиб, Гуломжонга жавдираб қараб турар эди.* М. Исмоилий, Фарғона т. о.

Aytish joizki so‘zning grammatik tarkibi haqida to‘xtalish o‘zbek tili izohli lug‘atiga xos emas. Uni morfemalarga ajratgan holda tarkibini izohlash holatlari uchramaydi. Biroq izohlarda

³⁴⁵Qarang: Щерба Л. Опыт общей теории лексикографии // Щерба Л. В. Языковая система и речевая деятельность. М.: КомКнига, 2007. С. 205-304; Дубичинский В. Теоретическая и практическая лексикография. Вена - Харьков 1998, 160с; Современные проблемы лексикографии: Сб. научных трудов / Под ред. В. Дубичинского, С. Вакуленко, А. Даниленко. - Харьков, 1992

³⁴⁶Qarang: Заграевская Т. Эволюция лексикографии в зарубежной лингвистике // Вестник Пятигор. госуд. лингвистич. универс. – Пятигорск: 2012. – №2. – С. 128 – 133; Шевченко Е. Толкование значения слова как форма выражения метаязыкового сознания диалектоносителя – Вестн. Ом. ун-та. 2011. № 1. С. 152–155.

sinonimlar yoki so‘z shakllari bilan bir qatorda leksik ma’noga yondosh boshqa so‘zlarning qo‘llanishi izoh tarkibiy qismlarga ajratilgan holda shakllantirilgan degan xulosaga asos bo‘ladi. Bunday assotsiativ yondashuv misollarda ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, *o‘ksinmoq* yoki *o‘ksimoq* fe’li talqinida *ko‘ngliga olmoq*, *begonasiramoq*, *o‘pkasi to‘lmoq* kabi so‘zlar bor. Bularning bari o‘ksinish holatining alomatlarini yoki sabablariga ishora qilish bilan birga leksemda mavjud salbiy bo‘yoqdorlik mohiyatini ochib beradi. Nafratlanmoq leksemasi talqinida ham jirkanish, g‘azablanish kabi hissiyotning tarkibiy emotiv holatlari sanab o‘tilgan. Birinchi misolda ushbu hissiy holatning sababchisi sifatida *yuzsizlik* keltiriladi. Boshqa misolda *bedodlik* sabab qilib ko‘rsatilgan. Bundan anglashiladiki, nafratlanish hissiy holati kishining hatti-harakati yoki fe’l-atvoriga nisbatan yuzaga keladi. So‘z ma’nosini semantik tarkibga ajrtaib izohlash uslubidan faol foydalanilgan.

ҲАДИКСИРАМОҚ Ҳадик олмоқ; хавф-сирamoқ, чўчимоқ, қўрқмоқ. *Абдибилол, акасининг гапини эшитиб қолишларидан ҳадиксираб, ён-верига қаради.* С. Юнусов, *Кутилмаган хазина. Фармонқул ака, нега қуёнга ўхшаб ўз соянгиздан ҳадиксирайдиган бўлиб қолдингиз?* С. Маҳкамов, *Шогирд. Бирор одам узоқ қараб қолса борми, ҳадиксираб, кечаларни уйқусиз ўтказарди.* С. Анорбоев, *Оқсой.*

УЯЛМОҚ Уят-андиша ҳис-сезгисини туймоқ. *Эр йигитнинг уялгани — ўлгани.*

Мақол. ■ *Ортиқ бир сўз деёлмадим Андишалик бу ишдан. Лекин отда уялмадим «Хайр, жоним» дейишдан.* Т. Тўла. *«Дилор, ўртоғинг қаерга тушган? — Дилора ҳам бўйига етиб қолган қиз эди, бўласига тик қарашдан уялдими, ғўзалар ичидан туриб: «Уйда, — деди. М. Исмоилий, Фарғона т. о.*

ХАВОТИРЛАНМОҚ 1 Ташвишга тушмоқ, ташвишланмоқ; *Хосият хола қизидан хавотирланиб, эшик томон боргач, кўчага тикилди.* Р. Файзий, *Чўлга баҳор келди.*

2 Бирор нарсадан хавфсирamoқ, чўчимоқ, қўрқмоқ. *Темиржон хавотирланди. Қаршиидаги йигитдан кўзини узмай, ортга бир қадам тисарилди.* Ж. Абдуллахонов, *Орият.*

Sinonimik yondashuvning kamchiligi o‘zaro ma’nodosh so‘zlar talqini qiyosida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, *hadiksiramoq* so‘zi izohi ayni leksemaning boshqa shakli bilan boshlanib, sinonimlar bilan yakunlangan. Misollardan ikkisida hadiksirash holatiga sabab, birida unga nisbatan o‘xshatma keltiriladi. *Xavotirlanmoq* fe’lining izohida ikki ma’no ajratilgan. Birinchi ma’no izohida bir so‘zning shakllaridan foydalanilgan. Misolda asotsiativ

ma’no munosabati kuzatilmaydi. Ikkinchi ma’no izohida esa ayni *hadiksiramoq* uchun berilgan sinonimlar keltirilgan. Misolda xavotir holatida yuz berishi mumkin bo‘lgan hatti harakat haqida so‘z yuritiladi. Ikki ma’nodosh so‘zning farqi ayni semantik tarkibida. Hadiksirash holati qo‘rquvga yaqin. Xavotir holati esa o‘zida g‘amxo‘rlik alomatini mujassam qiladi. G‘amxo‘rlik nuqtai nazaridan xavotirlanish holati, hissiyotning ijobiy qirradi misoldan anglashilmaydi. Sinonimik yondashuvda so‘zning eng kichik semantik qirralari ko‘zga tashlanmaydi. Ikki o‘xshash ma’noga ega so‘zni qiyoslaganda sinonimik yondashuv bu leksemalarning ma’nosidagi farqni ochib bermaydi.

ТОРТИНМОҚ Уялиб, бегонасираб ёки бирор бошқа андиша билан ўзини тортиб, тийиб, одоб сақлаб турмоқ, ийманмоқ. *Тушунмаганларингизни ҳеч тортинмай сўранг. П. Турсун, Ўқитувчи. Содда қишлоқ йигити такалуфни билмаса ҳам, одоб-таъзим хусусида онаси анча-мунча гапларни уқтириб юборгани учун, давлатманд қариндошининг ҳузурида овқатдан тортинишни маъқул кўрди. Ойбек, Танланган асарлар. Ҳақ ва адолат пешволари ҳақни риё, риёни ҳақ дейишдан тортинмас эканлар. М. Исмоилий, Фарғона т. о.*

Uyalish hissiy holari izohida sinonimlardan *andisha his qilmoq* keltirilgan. Uning tarkibidagi hijolat bo‘lish, begonasirash, kishi hatti-harakatidan afsuslanishi kabi ma’nolar izohda aks etmagan. Misollarda uyalishning fiziologik alomatlari *qizarish, lovullab yonish* holatlari ilova qilingan taqdirda leksema mohiyati aniqlashgan bo‘lardi. Uyalmoq ma’nosining tarkibiy qismi bo‘lgan, shu ma’noni tashkil etuvchi alomat, uyalish holatida boshlang‘ich, kuchsiz daraja hisoblanuvchi tortinish hissiyoti izohi esa kengroq. Ushbu so‘z talqinida semantik tarkib ajratilishi mavjud. Tortinish bilan bog‘liq tushunchalar *odob, begonasirash* leksemalari keltirilgan. Shu assotsiatsiyalarni o‘z ichiga olgan misol bilan so‘z ma’nosi dalillangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bundan kelib chiqadiki, sinonimik izoh yana bir yondashuv semantik tarkibni sanab o‘tishni ham talab etadi. Zero faqat ma’nodoshlar berilganda asosiy leksema va ular orasidagi ma’no farqi ko‘rinmay qoladi. Ma’noga yondosh, uning tarkibidagi kichik semalarni namoyon qiluvchi so‘zlar bevosita izohda yoki misol vositasida berilishi mumkin. Demak, sinonimik va semantik tarkibga ajratishni bir-birini to‘ldiruvchi, biri ikkinchisini taqozo qiladigan uslub ekanligini ta’kidlash joiz. Barcha leksemalar ham sinonimga ega emas, biroq deyarli barchasi assotsiativ ma’no munosabatlariga kirishadi. Shu bois so‘zning leksik ma’nosini tarkibiy qismlarga ajratib yoki yondosh tushunchalar ko‘magida izohlash uslubiga ko‘proq murojaat qilinishi tabiiy. Shunday bo‘lsa ham semantik iyerarxiyaga ko‘ra yirikroq ma’no ko‘lamiga ega leksema izohi, tor ko‘lamli sinonimdan ko‘ra batafsil izohlanishi kerak. Xususan, yuqoridagi juftlikda *uyalmoq* leksemasi *tortinmoq*dan ko‘ra keng ko‘lamli semantik maydonga ega. Biroq izohlar ayni semantik iyerarxiyaga muvofiq emas. *Uyalmoq* so‘zi uchun shakllantirilgan qisqa sinonimik izoh o‘quvchi ongida bu so‘zning mazmuniy zalvori ahamiyatsiz ekan degan yanglish tasavvurni shakllantiradi. Agar uyalmoq so‘zi izohida *odob saqlamoq, hijolat chekmoq, afsuslanmoq, jur’atsizlanmoq* holatlar sanab o‘tilganda lug‘at maqola leksema ma’no ko‘lamini to‘laqonli qamrab olardi. Shu assotsiatsialar sabab yoki alomat shaklida misollarda keltirilsa ushbu leksemaning kontekstual ma’no xususiyatlari ham aniqlashishi mumkin. Ma’nodoshlar sirasida semantik iyerarxiyaga asosan izoh shakllantirishdan oldin bevosita

muayyan leksemaning tizimdagi o'rnini aniq bilish lozim. Buning uchun sinonimlar orasida graduonimik ma'no munosabati qaysi belgiga asosan ortib yoki kamayib borishi haqida tasavvur bo'lishi talab etiladi.³⁴⁷ Masalan, *tashvishlanmoq*, *xavotirlanmoq*, *hadiksiramoq* qatorida hissiy holat fe'llari salbiy bo'yoqdorlikning ortib borishiga ko'ra tartiblanadi. *Tortinmoq*, *hijolat bo'lmoq*, *uyalmoq* qatorida hissiyotning intensivligi ortib borishiga ko'ra tartibot bor. Daraja qatorida muayyan belgi yuqori pog'onada bo'lgan leksema izohi ham shunga mos tarzda batafsil izohlanishi, semantik tarkibi yoyiq berilishi maqsadga muvofiq.

Izohli lug'atlarda faol qo'llanadigan yana bir usullardan biri ziddiyatli yondashuv. Bunda leksema ma'nosi zid ma'noli so'zlar, bo'lishsizlik shakli vositasida amalga oshiriladi.³⁴⁸ O'zbek tilining izohli lug'atida zid ma'noli hissiy holat fe'llari talqiniga quyidagicha yondashilgan:

ТИНЧЛАНМОҚ 1 Хаяжонини, аччиғини босиб ёки таптидан, ҳовридан тушиб ўзини тутиб олмоқ, ўзини босмоқ. -*Тинчланингиз, Отабек! — деди қушбеги. А. Қодирий, Ўтган кунлар. Ойимхон ювош товуш билан уни тинчланишга чақирди. Ғ. Расул, Тўнғич ўғил.*

2 Ташвиш, дард-алам, хавотирлик, безовталиқдан холи бўлмоқ, тинч тортмоқ. *Касал бир қимирлаб, кўзини очди ва бош кўтариб, тиланчи хотинга қарагандан кейин, яна бошини ёстиққа қўйиб тинчланди. С. Айний, Қуллар. Отабекнинг пишиллаб ухлаган товушини эшитиб, [Ҳасанали] бир даража тинчланди. А. Қодирий, Ўтган кунлар. Кампирнинг уйқуда эканига ишонгач, юраги бирдан тинчланди. Ойбек, Танланган асарлар.*

3 Шовқин-сурон, жанжал, ҳаракат ва ш.к. лардан тўхтамоқ, тинч ҳолат юз бермоқ. *У, трибуна олдида келган бўлса ҳам, беш минутча сўзлаёлмай, халқнинг тинчланишини кутиб турди. Ойдин, Садағанг бўлай, командир. Қўлларининг кескин ҳаракати билан халққа тинчланишни буюришди. Ойбек, Танланган асарлар.*

ҒАЗАБЛАНМОҚ Ғазаби келмоқ, қаттиқ жаҳли чиқмоқ, ғоят аччиқланмоқ. *Эликбоши ғазабланиб, хотиннинг бошига қўл кўтарди, лекин урмади. Ойбек, Танланган асарлар.*

Ikki zid ma'noli leksemadan faqat *tinchlanmoq* hissiy holat fe'li izohida ziddiyatli yondashuvdan goydalanilgan. Bu o'rinda tinchlanish holatiga zid qilib *hayajon*, *achchiq*, *tashvish*, *dard-alam*, *havotir*, *shovqin-suron*, *janjal* kabi qator leksemalar sanab o'tilgan. Kishi ongi bu holatlarni oson gavdalandiradi va natijada asosiy leksema shu ma'nolarning ziddi ekanligi ham tezda anglashiladi. G'azablanmoq so'zi izohida esa so'z shakllari va ma'nodoshlarga murojaat qilingan. Oqibatda, ushbu leksema sanalgan sinonimlarga qay darajada ma'nodosh, uning asl mazmun-mohiyati nima degan savol ochiqlicha qoladi. Bundan kelib chiqadiki, zid ma'noli so'zlardan foydalanish so'z ma'nosini yaqqolroq ochib

³⁴⁷Qarang: Orifjonova Sh. O'zbek. Tilida lug'aviy graduonimiya. Toshkent.,1995; Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish – Toshkent, 1997.

³⁴⁸Qarang: Арбатский Д. Основные способы толкования значений слов // Русский язык в школе. – 1970. – № 3. – С. 26–31; Морковкин В Основы теории учебной лексикографии. — М.: Институт русского языка им. А.С. Пушкина, 1990.

beradi, kishi ongida qay darajada ma‘nodosh degan savol tug‘ilmaydi. Izohlanmish izohlovchining ziddi degan tasavvur muhrlanadi. Shuning uchun ziddiyatli yondashuvni yuqorida sanab o‘tilgan ikki usuldan ko‘ra yuqori informativlik darajasiga ega deb ta‘kidlash mumkin. Xususan, hissiyot kabi mavhum substansiyalarni izohlashda assotsiatsiyadan ko‘ra kontrast mos tushadi, ya‘ni izohlanmish leksemaning ma‘no ko‘lami chegaralarini yaqqol belgilab beradi.

Izohli lug‘atda uchraydigan yana bir yondashuv tavsifiy talqindir. Tavsifiy talqin so‘zning ma‘no tarkibi sifatlash, birma-bir sharhlashga asoslanadi.³⁴⁹ Ta‘kidlash joizki, izohli lug‘atda yuqorida sanab o‘tilgan uslublarga ko‘p foydalanilgani holda tavsifiy yondashuvga kamdan-kam murojaat etiladi. Garchi bu usul mavhum ma‘nolarni izohlashda qo‘l kelsa ham hissiy holat fe‘llari talqinida tavsifiy izohlar yo‘q. Leksema ma‘nosining tavsifiy talqinida ma‘no ifodalovchi holat yuzaga kelishiga nima sabab bo‘lgani, bu holat belgi-alomatlarini, holat natijasi kabi omillar tilga olinishi kerak. Bunday talqin ingliz tilining izohli lug‘atlarida ko‘p uchraydi. Sababi manbalar ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchi o‘quvchilarga mo‘ljallangan. Bunday maqsadni amalga oshirish uchun sinonimik, tarkibiy qismlarga ajratish yoki ziddiyatli uslublar mos kelmaydi. Ze‘ro bu uslublarda o‘quvchidan ma‘nodoshlarni, zid ma‘noni, tushuncha freymini anglash kerak bo‘ladi. Tavsifiy yondashuv leksema haqida oldindan birlamchi tasavvurga ega bo‘lishni talab etmaydi. Masalan, hissiy holat fe‘llarini quyidagicha tavsifiy izohlash mumkin:

ACHCHIQLANMOQ – *niyatiga yetolmaganlik, kishining yoqimsiz hatti harakati sabab ta‘bi buzilmoq, gina va norozilik hissini tuymoq* – *shu hissiyot sababli kishilarga ozor bermoq;*

HUZURLANMOQ – *muddaosi, maqsadiga yetganligidan qoniqmoq, yoqimli taom, ob-havo, suhbat sababli ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lmoq.*

Sabab, belgi-alomat, oqibat trayektoriyasini o‘z ichiga olgan bunday izohlar so‘z mohiyatini ochib berishi bilan birga uning ma‘no ko‘lamini yaqqol belgilab beradi, assotsiativ munosabatlarini ham ko‘rsatadi. Bunday izoh semantik jihatdan misollar bilan asoslanishi shart emas, misollar faqat so‘zning funksional, birikuv xususiyatlarini dalillash maqsadida ilova qilinishi kerak. Shuning uchun tavsifiy uslub o‘quv izohli lug‘atlariga mos keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1–5 jildlar. – T.: “Fan”, 2006–2008.
2. Jo‘raev N. O‘zbek tilining zamonaviy semasiologiyasi. – T.: O‘zMU, 2018.
3. Jo‘raev N. So‘z va ma‘no. – T.: Fan, 2000.
4. G‘afforov N. Hissiy holatlarni ifodalovchi leksika-semantik guruhlar. – T.: TDPU, 2015.
5. Xolmatova M. Fe‘l semantikasi va uning o‘zbek tilidagi ifodasi. – T.: TDPU, 2019.
6. Qurbonov Yo. Hissiy holat ifodasining lingvistik aspektlari. – T.: O‘zMU, 2020.
7. Solijonov A. Semasiologiya asoslari. – T.: O‘zMU, 2007.

³⁴⁹Qarang: Atkins S., Rundell M. The Oxford guide to practical lexicography – New York: Oxford university press, 2008 – 585pp.

8. Madrahimov T. O‘zbek tilida fe’lning semantik xususiyatlari. – T.: Fan, 1995.
9. Tursunov M. O‘zbek tilida fe’llarning sintaktik-semantik xususiyatlari. – T.: O‘zMU, 2011.
10. Sobirova G. Hissiylikni ifodalovchi vositalar va ularning turlari. – T.: O‘zDJTU, 2016.
11. Qodirova R. O‘zbek tilida fe’l kategoriya va zamon munosabatlari. – T.: TDPU, 2017.
12. G‘ulomov N. O‘zbek tili leksikologiyasi. – T.: Fan, 1985.
13. Hojiahmedov A. O‘zbek tilida modal birliklarning ifoda vositalari. – T.: Fan, 2003.
14. Eshonqulov O. Fe’l semantikasi va uning strukturasi. – T.: O‘zMU, 2010.
15. Abduazizov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘zMU, 2004.
16. Sodiqov A. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: Fan, 2000.
17. Bobojonov U. O‘zbek tilida hissiylik va baholovchanlik ifodasi. – Samarqand: SamDU, 2012.
18. Karimov F. Til va tafakkur: semantik tadqiqotlar. – T.: O‘zMU, 2021.
19. Shukurov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: TDPU, 2015.
20. Bozorov M. O‘zbek tilida fe’llar semantikasi va ularning kommunikativ funksiyasi. – T.: O‘zRFA, 2019.